

SCIENCEZONE

ONLINE SCIENTIFIC
CONFERENCES

Conference On Legal Science



No.3 (2)

2024

12.00.00 – YURIDIK FANLAR – LAW

<i>Abdihakimov Farhod Zafar o'g'li</i> INNOVATSION TADBIRKORLIK FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY MEXANIZMI	3
<i>Aliyeva Marjona Obid qizi</i> ELEKTRON TIJORATDA SHARTNOMA TUZISHNING UMUMIY TALABLARI	12
<i>Tilavova Sadaf To'lqin qizi</i> O'ZBEKİSTON VA GERMANİYADA TADBIRKORLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH TAMOYILLARI VA ULARNING TADBIRKORLIK QONUNCHILIGIDA AHAMIYATI	16
<i>Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li</i> SUDLAR FAOLIYATIGA ELEKTRON ODIL SUDLOV MODELINI TATBIQ ETISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI	19
<i>G'ulomov Shohruh Islomjon o'g'li</i> METAVERSE PLATFÖRMALARIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH	27

SUDLAR FAOLIYATIGA ELEKTRON ODIL SUDLOV MODELINI TATBIQ ETISH HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Isoqov Ahmadali Komiljon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

isoqovahmadali843@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sndlarda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash maqsadida electron odil sudlov modelini tadbiqu etish tushunchasi, mazmuni, nisbati va ahamiyatiga oid nazariy va amaliy masalalar, bu masala bo'yicha yuridik adabiyotlarda ilgari surilgan g'oyalar, taklif va mulohazalar, shuningdek xorijiy davlatlar qonunchilik tajribasi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sndlada elektron odil sudlov modelining tushunchasi, mazkur faoliyatning shaffofligi va ochiqlikni taminlashdagi ahamiyati, mazmuni, nisbati va tushunchasiga oid nazariy tushunchalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, odil sudlov, elektron hujjat, sndlар faoliyati, fuqarolik va iqtisodiy sud ishlarini yuritish, halollik, shaffoflik, ochiqlik, tadbirkorlar ishonchi, oshkoraliq, axborot texnologiyalari, veb-saytla, huquqiy asoslar, arxivlash, axborotlashtirish, huquqiy hujjatlar, davlat kafolati, huquqiy mexanizm, integratsiya, takomillashtirish.

O'zbekistonda axborot texnologiyalarini sud tizimiga joriy etish, sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Sud tizimida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, xususan, elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish, sudlov bo'yicha axborot tizimlarini yaratish va joriy etish, veb-saytlar orqali fuqarolarga xizmat ko'rsatish va boshqalar sud organlarida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini tashkil etadi.[1]

So'nggi yillarda sndlар faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga

murojaat qilishni erkinlashtirish, umuman odil sudlovga erishishni oshirish hamda sudlar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash imkonini berdi.

Biroq shu bilan birga, bugungi kunda sndlarda ishlarni ko'rishda ko'pgina vazirlik va idoralar bilan ma'lumot almashinushi ularning axborot tizimlari o'zaro to'liq integratsiya qilinmaganligi sababli asosan qog'oz shaklida amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari, sudlar tomonidan fuqarolar va tadbirkorlarga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish talab etiladi.

Ta'kidlash joizki, sud hokimiysi organlari faoliyatini raqam-lashtirish nafaqat sud organlari faoliyatining samaradorligining oshishiga, balki O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida belgilangan sudda ish ko'rishning oshkoraliqi va hamma uchun ochiqligi prinsiplarini sudlar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash, aholining sudlar faoliyatiga bo'lgan ishonchini oshirish orqali rivojlantirish va sifat jihatdan yangi bosqichiga ko'tarishga imkon beradi.[2]

Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish ishlarni ko'rib chiqish sifatini oshirib, muddatini qisqartirish imkonini beradi. Amaliyotchi mutaxassislarining fikricha, bu fuqarolarning vaqt, mablag'i tejalishi, huquqlari o'z vaqtida tiklanishiga keng yo'l ochadi.[3] Huquqshunos olimlar ham o'z asarlarida jamiyat hayotining turli sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining izchil ravishda kirib kelayotganligi odil sudlovni amalga oshirish tartib-taomillariga ham o'z ta'sirini ko'rsatganligini, sud ishlarini yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish, sudlar faoliyatida kompyuterlashtirish darajasini va kompyuter texnikasidan foydalanish samaradorligini oshirish sudyalar-ning ish hajmini pasaytirishga, turli moliyaviy sarf-xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishini, jamiyatda demokratiya va adolatni ta'minlashning eng muhim omili bo'lmish sud hokimiyatining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanishi uning jamiyatda tutgan o'rni va obro'sini ham oshirishini ta'kidlaydi.[4]

Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish, ta'bir joiz bo'lsa elektron odil sudlovning muhim elementlaridan biridir. Elektron odil sudlov - bu axborot texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan odil sudlovni amalga oshirish usuli ekanligini, u sudlar to'g'risidagi ma'lumotlarga kirishni ta'minlovchi va sud ishlarini avtomatlashtirish tizimlarini o'z ichiga olishini, elektron vositalar sndlarning mutlaqo ochiqligi va oshkorligini ta'minlashi, sud ishlarining sifatini

yaxshilashi, xarajatlarni kamaytirishi va bahsli huquqiy munosabatlar ishtirokchilariga qulaylik yaratishi haqida fikr bildiradi.[5]

2017-yilning 8-fevralida matbuotda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmon bilan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublika-sini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi"da[6] sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha bir qator aniq chora-tadbirlar nazarda tutildi. Unga ko'ra, *sudyalar o'rtaida ishlarni avtomatik ravishda taqsimlash tartibini joriy qilish; sudlarda o'z vaqtida elektron tarzda axborot almashuvini ta'minlovchi korporativ aloqani joriy etish, sud faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimini kiritish; sud qarorlarining axborot-huquqiy elektron bazasini yuritish, shaxsiy hayot daxlsizligini ta'minlagan holda va sud ishtirokchilarining roziligi bilan barcha sud qarorlarini chop etish tartibini joriy qilish (yopiq sud jarayonida ko'rib chiqilganlaridan tashqari)* kabilar nazarda tutildi. Shuningdek, Davlat dasturida elektron tartibda sud ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini, shu jumladan, protsess ishtirokchilari bilan o'zaro elektron hamkorlikni amalga oshirish, videokonferensaloqadan foydalanishni, shuningdek protsessual harakatlarni video, audio qayd etishni, sud-tergov jarayonlarini stenogramma qilishning yangi turlarini kengroq joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish imkonini beruvchi qonun loyihasini ishlab chiqish nazarda tutildi (73 va 82-bandlar).[7]

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-avgustdagagi PQ-3250-son Qarori bilan 2017-2020 yillarda Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi tasdiqlandi.[8] Hozirgi kunda mazkur Dasturning ijrosi natijasida sndlarga masofadan turib murojaat qilish, sud majlislarida videokon-ferensaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish, sudyalar o'rtaida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash, sud qarorlarini Internet tarmog'ida e'lon qilish, ijo hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimlari joriy etilgan.

Sud hokimiysi organlari faoliyatini raqamlashtirish, sudlar va boshqa idoralar o'rtaida ma'lumot almashinuvini yaxshilash maqsadida 2020-yil

3-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. [9]

Mazkur Qaror bilan sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirishning keyingi bosqichdagi vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatiladigan interaktiv elektron xizmatlar turlarini kengaytirish, har bir murojaatni ko'rib chiqish jarayonining onlayn kuzatib borilishini ta'minlash, sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkoniyatini yaratish;

sudlarda odil sudlovni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning tezkorlik bilan olinishini ta'minlash uchun vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar bilan elektron ma'lumotlar almashinuvini yanada kengaytirish;

maxsus axborot dasturlarini joriy etish orqali sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;

sud majlislarida masofadan turib, jumladan mobil qurilmalar va elektron hamkorlikning boshqa shakllari orqali ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek ish bo'yicha taraflar uchun sud qarorlarini onlayn tarzda olish imkoniyatini yaratish;

sudning axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalari va boshqa dasturiy mahsulotlari axborot va kiberxavfsizligini ta'minlash, xizmat axborotlari va ma'lumotlarini kompleks himoya qilish bo'yicha choralarni kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan 2020-2023 yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi. Dasturda 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo'yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirish; 2021-yil 1-iyuldan boshlab apellyatsiya va cassatsiya instansiyasi sudlarida ishlarni sudyalar o'rtasida avtomatik ravishda taqsimlash; 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqtি va joyi haqida «SMS» xabar orqali bepul asosda xabardor qilish; 2022-yil 1-yanvardan boshlab sud qarorlarini ish bo'yicha taraflarga onlayn tarzda, ularning iltimosnomasi bo'yicha esa qog'oz shaklida taqdim etish; 2022-yil 1-iyulga qadar sud hokimiyati organlari faoliyatida, shu jumladan fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlariga odil sudlovga

erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar ko'rsatishni yo'lga qo'yish; 2023-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish; sudlar, Sudyalar oliy kengashi hamda Sudyalar oliy maktabida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yanada yaxshilash nazarda tutildi.

Yuqoridagi tadbirlarning barchasi mamlakatimizda elektron odil sudlovning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda adabiyot-larda elektron odil sudlov deganda, sud tizimiga tegishli elektron shaklda ma'lumotlarni taqdim etuvchi, shuningdek axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sud ma'lumotlarini elektron ravishda almashishga imkon beradigan har bir xizmat tushunilgan. Bizning fikrimizcha, ushbu nuqtai nazar bilan to'liq qo'shilib bo'lmaydi. Elektron odil sudlovning sud ma'lumotlarini elektron almashish yoki elektron kommunikatsiyadan ajratib turadigan asosiy mezoni bu - odil sudlovni amalga oshirish samaradorli-gining qulayligi va shaffofligi nechog'lik ta'minlanganligidir. Boshqacha qilib aytganda, elektron odil sudlovning samaradorligi sud ishlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etilishi bilangina emas, balki sudda ishlarning oshkoraliqi va sud hokimiyati faoliyatining ochiqligining nechog'lik ta'minlanganligi bilan ham belgilanadi.

Fikrimizcha, elektron odil sudlov sud funksiyalarining shaffof-ligini, ma'lumotlarning oshkorligini ta'minlaydi va natijada suda-larning mustaqilligi va xolisligini ta'minlash uchun yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi. Shu nuqtai nazardan elektron odil sudlovning quyidagi huquqiy mexanizmlari mavjudligi haqida xulosa qilish mumkin:

- 1) axborotning ochiqligi;
- 2) masofaviy hamkorlik;
- 3) sud qarorlarining ma'lumotlar bazasi;
- 4) sud qarorlarining xalqaro miqyosda tan olinishi;
- 5) elektron hujjat aylanishi;
- 6) ishlarni elektron tarzda masofadan qo'zg'atish va hujjatlarni topshirish;
- 7) elektron ma'lumotlar;
- 8) elektron konsalting.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, elektron odil sudlovga quyidagicha ta'rif berish mumkin bo'ladi: elektron odil sudlov - odil sudlovning ochiqligi va qulayligini ta'minlash va ijtimoiy-huquqiy nizolarni sudlar tomonidan samarali hal etish uchun ma'lumotlarni to'plash, ishlov berish, saqlash, tarqatish, namoyish etish va ulardan foydalanish maqsadida sudlar faoliyatida dasturiy-texnik vositalarni qo'llash jarayoni.

Shu o'rinda S.Yu.Sharaev ham elektron odil sudlov o'zida qog'ozdan raqamli shaklga o'tishni; sud majlisini audio va video yozuvini; sud ishlarining elektron arxivi yuritilishini va albatta sud hujjatlarining elektron hujjat shaklida tayyorlanishini nazarda tutadi.

Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining CM / Rec (2009) 1 (G48)-tavsiyalarida elektron odil sudlovning nimalarda namoyon bo'lishi aniq bayon etilgan. Unga ko'ra, elektron odil sudlov elektron demokratiyaning ifodasi sifatida, sudlarning rasmiy veb-saytlari, milliy va xalqaro portallar, sud ishining holati to'g'risida onlayn ma'lumot berish tizimlari, videokon-ferensaloqa tizimlarini, shuningdek elektron axborot almashish usullari va standartlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar huquqni qo'llash amaliyotida elektron odil sudlov sudlarning ochiqligi va oshkoraligni ta'minlash, sud faoliyatiga doir ma'lumotlardan keng jamoatchilikni habardor qilishda ko'proq namoyon bo'lmoqda. Xususan, sudning ish bo'yicha yakuniy to'xatami - sud qarorlarining Internetda ma'lumotlar bazalarini yaratish orqali amalga oshirilishiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Masalan, Avstriyada elektron huquqiy ma'lumotlarning bazalari keng tarqalgan. Ularning eng mashhuri - "RIS" deb nomlangan Avstriyaning huquqiy axborot tizimidir. Sud xodimlari va boshqa barcha foydalanuvchilar ris.bka.gov.at veb-saytida qonunchilik bilan tanishishlari, qonun hujjatlarining rasmiy manbasi hisoblangan "Qonunlar axborotnomasi" hamda oliy instansiya sudlarining barcha qarorlari va boshqa sud instansiyalarining eng muhim qarorlarini yuklab olishlari mumkin.

Fransiyada oliy sud instansiyalarining va ma'muriy sudlarning qarorlari "Legifrance.gov.fr" nomli Internetdagi huquqiy axborot sayti orqali keng omma uchun ochiq bo'lib, mazkur sayt orqali Fransiyaning oliy sud instansiyalarining qarorlari bilan ham bemalol tanishish imkoniyati yaratilgan.

Buyuk Britaniyada <http://www.publications.parlament.uk/pa/Id> deb nomlangan lordlar Palatasining maxsus sayti orqali Qirollikning barcha hududidagi sud qarorlari bilan tanishish mumkin bo'ldi.

AQShning barcha sud qarorlari shu sudlarga tegishli bo'lgan nashrlarda to'plam sifatida chop etib boriladi va mazkur nashrlarni barcha yuridik kutubxonalarda topish mumkin.

Rossiya Federatsiyasi Oliy sudining veb-sayti da'vo arizalari, apellyatsiya, kassatsiya shikoyatlari, shuningdek ularga javoblar, ishlarni apellyatsiya, nazorat tartibida masofadan turib elektron odil sudlov tizimi orqali ko'rib chiqishni

tashkil qiladi. Bundan tashqari, endi istagan har qanday kishi "Elektron qo'riqchilar"-2 avtomatlashtirilgan tizimidan foydalangan holda ish jarayonlarining harakatlanishini kuzatish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki, sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish orqali elektron odil sudlovning samara-dorligi oshirish sud ishlarini yuritishda zamonaviy axborot texnologiya-larini joriy etilishi bilangina emas, balki sudda ishlarning oshkoraliqi va sud hokimiyati faoliyatining ochiqligining nechog'lik ta'minlanganligi bilan belgilanadi.

Elektron odil sudlov - odil sudlovning ochiqligi va qulayligini ta'minlash va ijtimoiy-huquqiy nizolarni sudlar tomonidan samarali hal etish uchun ma'lumotlarni toplash, ishlov berish, saqlash, tarqatish, namoyish etish va ulardan foydalanish maqsadida dasturiy-texnik vositalarni qo'llash jarayoni bo'lib, sudlarning rasmiy veb-saytlari, milliy va xalqaro portallar, sud ishining holati to'g'risida onlayn ma'lumot berish tizimlari, videokonferensaloqa tizimlarini, shuningdek elektron axborot almashish usullari va standartlarini o'z ichiga oladi.

REFERENCES:

1. Yodgorov X.B. "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" loyihasining axborotnomasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, AQSh Xalqaro Taraqqiyot Agentligi (USAID) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) "O'zbekistonda qonun ustuvorligi yo'lida hamkorlik" qo'shma loyihasi // www.undp.org › ruleoflaw
2. https://www.norma.uz/raznoe/e-sud_elektron_sudlov_ahborot_tizimi
3. Sud orqali himoyalanish imkoniyati ortmoqda // O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati raisi Xolmo'min Yodgorov bilan O'za muxbirining suhbati, 13.08.2014 // <http://uza.uz/oz/society/sud-or-ali-imoyalanish-imkoniyati-ortmo-da->
4. Mamasiddiqov M.M. Fuqarolik sud ishlarini yuritishda oshkorlik tamoyili va jamoatchilik azoratini ta'minlashning dolzarb masalalari / Monografiya. - Toshkent. "Innovasion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi". 2019. - 60 b.
5. Elektronnoe pravosudie: itogi i perspektivy//internet-intervyu s Predsedatelem Arbitrjnogo suda Kalujskoy oblasti Sergeem Yurevichem Sharaevym, 2011 URL: <http://www.garant.ru/action/regional/271319/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi

to‘g‘risida”gi F-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 13-fevral, 6-son, 70-modda.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2017-yil 13-fevral, 6-son, 70-modda.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 avgustdagи “Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikaцiya texnologiyalarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3250-sonli qarori // http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3327998
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 sentyabrdagi “Sud hokimiyyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori // <http://uza.uz/oz/documents/sud-okmiyati-organlari-faoliyatini-ra-amlashtirish-chora-ta-04-09-2020>